

“BOSH” KONSEPTINING LINGVOKULTUROLOGIK ASPEKTDAGI TALQINI

Ashirova Mahbuba Firdavsiyevna

Toshkent amaliy fanlar universiteti Tillar kafedrasida o'qituvchisi

mfashirova@gmail.com

G'ayratova Komila

2-bosqich xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bosh konseptining o'zbek va fransuz tillaridagi ma'nolari tadqiq qilingan bo'lib, bunda mazkur konseptning tarjima jarayonida anglatadigan nozik qirralari ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: konsept, bosh, o'zbek tili, fransuz tili, lingvokulturologik, kognitiv, lug'aviy ma'no, ibora.

Til aloqa vositasi sifatida ellarni bir-biriga bog'lar ekan, unda iboralar va har bir millatning milliy ongi bilan bog'liq tushunchalarni tadqiq etish hamda keng ommaga taqdim etishga ehtiyoj sezilaveradi.

Zamonaviy tilshunoslikda konsept va til birliklari o'rtasidagi munosabatlar yechimini kutayotgan muammolar sirasiga kiradi. «Tushuncha» va «ma'no» konseptning mohiyatini tashkil etadi. Konsept atamasini ilk bor fanga olib kirgan rus olimi S.Askoldov o'z maqolasida “Konsept bu bir yoki boshqa tushunchalar to'g'risida fikrlash jarayonini o'zida aks ettirgan birlikdir” deb ta'rif beradi. Konsept nafaqat lingvokulturologiya, qolaversa, kognitiv tilshunoslikda ham muhim hisoblanadi. Konsept tilshunoslari e'tiborini tortgan tushunchadir, unga har bir tilshunos o'zi individual yondoshgan holda ta'rif beradi. Masalan, rus tilshunosi V. A. Maslovaga ko'ra, konsept ko'p qirrali tuzilma ekanligini va nafaqat til egalari tomondan o'ylangan, qolaversa, ularni hissiyotlari, hayajoni, milliy obraz va konnotatsiyani o'z ichiga olgan nuqtayi nazar konseptda borligini keltirib o'tadi.⁶ N.Usmonova “Lingvomadaniy konsept etnomadaniy xususiyatga ega bo'lgan va borliq haqidagi funksional ahamiyatga molik informatsiyani uzatadigan madaniyatning asosiy birligidir. U madaniy universalialarni ifodalaydi. Lingvomadaniy konsept tafakkurda mavjud bo'ladi, u o'zida kognitiv ratsional va emotsional-psixologik mazmuni biriktiradi. Lingvomadaniy konsept barcha til egalari uchun dunyoqarash modeli vazifasini o'taydi. Lingvomadaniy konsept milliy xarakterning shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi madaniyat vositasi hisoblanadi”⁷ deya ta'riflaydi.

⁶ Маслова В. А. Когнитивная лингвистика.– Минск.: ТетраСистемс, 2008.– С. 26.

⁷ Usmonova N. Lingvokulturologiya–, Toshkent, 2019.– B.43.

Yuqoridagi fikrlarga qo'shilgan holda aytish mumkinki, lingvokulturologiyada konsept tushunchasi ayni til sohiblari ayni bir xalq tomonidan hech qanday izohlarsiz qabul qilinadigan asrlar davomida ularning ongida shakllangan tushunchalar majmuyi.

Zamonaviy tishunoslikda o'rganilayotgan konsept tushunchasi va uning nozik qirralari ham tildagi hodisalarni kognitiv va lingvokulturologik tahlili konseptni to'laroq tushunish va uning lisoniy xususiyatlarini ochishga yordam beradi.

Masalan, "bosh" konseptini fransuz va o'zbek tillarida tahlilida ikki xalq ongida ushbu tushunchaning bir-biriga o'xshash va farqli jihatlariga guvoh bo'lamiz. "Bosh" somatik a'zo sifatida barcha tillarda mavjud, ammo uning xalqlar ongidagi yoki tilda o'z ma'nosidan tashqari qo'llanilishi har bir xalq uchun individualdir. Bu holat, ayniqsa, fraziologizmlarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Masalan, o'zbek tilidagi *boshi ochiq* iborasi turmush qurmagan yoki uylanmagan ma'nolarini ifodalaydi. *o'nboshi* – o'n va undan ortiq kishiga boshchilik qiluvchi odam, *ishning boshi* – ishning boshlanishi, *ko'chaning boshi* – ko'chaning boshlanishi, *ro'zg'orboshi* – oilaning kattasi, bosh omon bo'lsa do'ppi topiladi iborasida *bosh* orqali sog'lik ma'nosi ifodalangan.

Shuningdek, fransuz tilida ham shu kabi "bosh" konsepti bilan bog'liq turli ma'nolar ifodasini ko'rish mumkin. Masalan, *Perdre la tête* so'zma-so'z tarjima qilinganda "boshini yo'qotmoq" ma'nosini ifodalaydi. *Depuis que son mari est mort, elle a complètement perdu la tête.* – Turmush o'rtog'i vafotidan keyin u butunlay es-hushini yo'qotdi. Ushbu iborada ko'rinib turibdiki, *perdu la tête* iborasi es-hushidan ayrilish ma'nosini ifoda etadi. Shuningdek, aqldan ozish ma'nosi quyidagi iborada ifoda etiladi.

Être tombé sur la tête so'zma-so'zma tarjimasi "boshini ustiga yiqilib tushish" ma'nosini ifoda etadi. Mazmunan esa "aqldan ozish"ni anglatadi.

Bu iboralarda anglangan ma'no aqldan ozishning turli darajalarini aks ettiradi.

Bundan tashqari, *avoir en tête* so'zma-so'z "boshdan ega bo'lmoq" ma'nosida anglatadi. Mazmunan "biror narsani qilishni niyat qilmoq, xohlamoq" ma'nolarini anglatadi. *Ils ont en tête de construire une piscine au bout du jardin* – Ular bog'ning to'riga hovuz qurishni xohlashdi.

En avoir par-dessus la tête – Boshini ustiga kelmoq. Ibora shaklidagi mamuni esa "to'yib ketmoq, joniga tegmoq"dir. *J'en ai par-dessus la tête de ton mauvais caractère* – Yomon fe'l-atvoringdan to'ydim.

En tête à tête – boshdan boshga. Ma'nosi ikki kishining yuzma-yuz yolg'iz qolishi, ayniqsa, bu sevishganlar nutqida ko'p qo'llaniladi.

Traditionnellement, le jour de la Saint-Valentin c'est le jour où les amoureux dînent au restaurant en tête à tête. – An'anaga ko'ra, Avliyo Valentin kunida sevishganlar restoranda yolgiz ovqatlanishadi.

Avoir la tête sur les épaules – yelkasida boshida bo'lmoq. Mazmunan "aqlli, mulohazakor bo'lmoq" ma'nosida keladi. – *Ne t'inquiète pas, ils ont la tête sur les épaules tous les deux!* – Xavotir olmang, ikkalasining ham boshi yelkasida!

N'en faire qu'à sa tête – Boshdan boshqa narsa qilmaslik. Mazmuni boshqalarni maslahatiga, fikriga quloq solmaslik o'z bilganidan qolmaslik. Qarorni faqat o'zi qabul qilish.

Je lui avais dit de ne pas acheter cette vieille voiture. Mais comme toujours, elle n'en fait qu'à sa tête– Men unga aytdim, bu eski avtomobilni sotib olma deb lekin har doimgidek u o'zini bilganidan qolmadi.

Une prise de tête iborasi "murakkab muammoga duch kelmoq" degan ma'noni anglatadi.

Tête baissée – egilgan bosh. Mazmunan "o'ylamasdan"

Elle n' a même pas pris le temps d'écouter mes conseils, elle est partie en Inde tête baissée. – U maslahatlarimni tinglashga ham vaqt ajratmadi, boshini quyi solib Hindistonga ketdi.

Yuqoridagi misollardan ko'rinib turibdiki, fransuz tilida ham o'zbek tilida ham "bosh" konsepti bilan bog'liq iboralar turli xil mazmunni ifoda etgan bo'lib, bunda o'zbek tili uchun "bosh" ma'nosi biror narsaning boshi, boshliqlik ma'nolarini ko'proq anglatadi.

Fransuz tilida esa "bosh" konsepti ko'proq aql, es-hush bilan bog'liq ma'nolarni anglatadi.

Ikki til o'rtasida tarjima qilish jarayonida mazkur ma'nolarni to'la anglash tillarning lingvokulturologik jihatdan to'laroq anglashga yordam beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Маслова В. А. Когнитивная лингвистика. – Минск.: ТетраСистемс, 2008.
 2. Usmonova N. Lingvokulturologiya– Toshkent, 2019.
 3. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. "Санзор" нашриёти,, 2006.
 4. Mamatov A.E. Zamonaviy lingvistika –Toshkent: «Tafakkur avlodi», 2020.
- 1 6 8 b.

5. Французко-русский фразеологический словарь. Около 3500 выражений. Под. ред. Я. И. Рецкера. М., Гос. изд-во иностр. и нац. словарей. 1963.–1112 стр.
6. O'zbek xalq maqollari (Tuzuvchilar: T. Mirzayev, A. Musoqulov, B. Sarimsoqov; – T.: "Sharq", 2019. – 512b.
7. Dictionnaire des expressions et locutions, (par A.Rey, S.Chantreau) Paris: 1984. – 1036 page.